

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**EKOLOGIK MUAMMOLARNING MOHIYATI, OQIBATLARI VA HAL ETISH
YO‘LLARI**

Boboyev A.CH

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, dotsenti, Buxoro sh.

Qurbonova X.B.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, stajyor-o‘qituvchisi, Buxoro sh.

qurbonovax709@gmail.com

**ПРИРОДА, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
ПРОБЛЕМ**

Бобоев А.Ч.

Бухарский инженерно-технологический институт,

Доцент преподаватель, г. Бухара

Курбонова Х.Б.

Бухарский инженерно-технологический институт,

преподаватель, г. Бухара, qurbonovax709@gmail.com

**NATURE, CONSEQUENCES AND SOLUTIONS OF ENVIRONMENTAL
PROBLEMS.**

Boboyev A.CH

Bukhara Engineering and Technology Institute, Docent teacher, Bukhara

Qurbonova X.B.

Bukhara Engineering and Technology Institute, teacher, Bukhara

qurbonovax709@gmail.com

Yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi muhim muammolardan biri atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi hisoblanadi. Ekologik muammo tabiiy muhit tarkibi va amalqilishining o‘zgarishi, antropogen yoki tabiiy ofatlar natijasida sodir bo‘lishi mumkin. Iqlim o‘zgarishi muammosi yildan-yilga dolzarblashib bormoqda. Ba‘zan bu iqlimning injiq bo‘lib qolganligiga sabablar qidiramiz. Biroq ob-havoning so‘nggi davrlardagi bunday injiqliklari umumiy qilib “iqlim o‘zgarishi” deb atashimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki ob-havo nafaqat yozgi kunlarda, balki qishda ham o‘z injiqliklarini ko‘rsatmoqda.

XX asrning 60-70-yillaridan boshlab insonning atrof-muhitga salbiy ta‘siri global ahamiyat kasb eta boshladi. XX asr davomida jahon aholisi soni 4 martaga, jahon ishlab chiqarish

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

hajmi esa 18 martaga oshdi. Global miqyosdagi ekologik muammoga aylanib ulgurgan muammolar tarkibiga iqlim o'zgarishi; suv havzalarining ifloslanishi; ozon qatlaminin emirilishi; chuchuk suv zaxiralarining tugab borishi va Jahon okeani suvlarining ifloslanishi; erlarning cho'llanishi va degradatsiyasi; biologik xilma- xillikning qisqarib borishi kabi muammolarni kiritishimiz mumkin¹⁰.

Global ekologik muammolar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- planetar xarakterga egaligi: global ekologik muammolar butun insoniyatni bevosita yoki bilvosita qamrab oladi;
- barcha mamlakatlar javobgar ekanligi: global ekologik muammolarning paydo bo'lishi biron-bir mamlakat emas, balki aksariyat ko'pchilik mamlakatlar aybi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan;
- global ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikning zarurligi;
- global ekologik muammolarni hal etish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralar qabul qilish zaruriyati.

Global iqlim o'zgarishi XXI asrning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Insoniyatning tabiatga nisbatan xo'jasizlarcha munosabatdabo'lishi, iqtisodiyotda neft, gaz va ko'mirdan haddan tashqari ko'p foydalanilishi natijasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdori ortib bormoqda. Ushbu gazlar atmosferada to'planib, sayyoraning qizigan sirti taratadigan ortiqcha issiqlikning kosmosga tarqalishiga yo'l qo'ymaydi va atmosferaning isishiga sabab bo'ladi. Quyidagilar iqlim o'zgarishiga olib kelayotgan issiqxona gazlari sirasiga kiradi: suv bug'i; karbonat angidrid (SO_2); metan (SN_4); azot oksidi (N_2O); gidroftoruglerodlar (GFU); perftoruglerodlar (PFU); oltingugurt geksaftoridi (SF_6). 2018 yilda issiqxona gazlarining atmosferadagi konsentratsiyasi bir millionga 405,5 zarrani tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich sanoatlashishgacha bo'lgan davrga nisbatan 146%ga ortgan¹¹. Tahlillar, jahonda atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish miqyosining ortib borayotganligi, ushbu gazlarni atmosferaga chiqarish miqdori bo'yicha belgilangan chegaraviy ko'rsatkichga erishgan mamlakatlar soni 2030 yilga qadar 57 taga va ularning jami issiqxona gazlarini chiqarishdagi ulushi 60% etishi mumkinligi bashorat qilinmoqda¹². (1.1-rasm).


¹⁰ The Emissions Gap Report 2018. <http://www.unenvironment.org/emissionsgap>.

¹¹ Finance & Development, december 2019, Vol. 56, No. 4.

¹² <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2019/12/climate-change-and-the-age-of-adaptation-georgieva.htm>

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>



1.1-rasm. Jahonda issiqxona gazlarini atmosfera ga chiqarish ko'rsatkichlari

Ekologik muammolarni hal etish masalasi BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari 2030” rejalarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, 2030 yilga qadar atmosfera ga issiqxona gazlarini chiqarish hajmini 2010 yil darajasiga nisbatan 45%ga, 2050 yilga qadar esa 0%ga qadar qisqartirish mo‘ljallangan. Bundan tashqari BMT shafeligida “2015-2030 yillarda ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha Senday hadli dasturi” qabul qilingan bo‘lib, unda yangi ofatlarga yo‘l qo‘ymaslik va mavjud ofatlar xavfini kamaytirish vazifalari belgilab olingan. 2017-2018 yillarda 70 tamamlakatdan olingan 67 ta ma‘ruzada belgilangan vazifalar Senday hadli dasturi bilan bevosita bog‘liq holda belgilangan¹³. 2019 yil 12 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2015-2030 yillarda ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha Senday hadli dasturi»ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli Qarori qabul qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ekologik muammolarni global darajada hal etishda quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- planetar miqyosda fikrlashning yangi modelini shakllantirish – insonni gumanizm tamoyillari asosida tarbiyalash va ularni inson faoliyati qanday global ekologik muammolarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirish;
 - global ekologik muammolar sababini o‘rganish;
- ekologik muammolarni monitoringini olib borish va prognozlashtirish tizimini yaratish. Faqat shu yo‘l bilan har bir mamlakat to‘g‘risida ob‘ektiv ma‘lumotlar olish, ularni tahlil etish va muammolarning yanada keng tarqalishining oldini olish mumkin;

¹³ <https://ecouz.uz/history>

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

- global ekologik muammolarni hal etishda barcha mamlakatlarning intilishlarini muvofiqlashtirish va kuchlarni bir joyga jamlash. Resurslarning yagona fondini yaratish, muntazam ravishda axborot va bilimlar bilan almashinish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ochilova B. Tabiatdan foydalanish bu insonning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan faoliyati sifatida. Falsafa va huquq №4, 2007, b-60 2.Mustafoev S., O'rinov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006, b-10-11

3.Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T.: «Yangi asr avlodi», 2005, b- 262-263 4.E.Usmonov. Ekologik munosabatlarning globallashuvi. Jamiyat va boshkaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'anviy tarixiy jurnal. Toshkent, 2007, №2, 89-90-bet. 5. <https://uz.delachieve.com/>

4. The Emissions Gap Report 2018. <http://www.unenvironment.org/emissionsgap>.

5. Finance & Development, december 2019, Vol. 56, No. 4.

<https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2019/12/climate-change-and-the-age-of-adaptation-georgieva.htm>

6. “Ways to develop cooperation of higher education and professional educational institutions in the distribution of labor resources in the region”.

KB Kurbanova - International Bulletin of Engineering and Technology, 2023

7. Ochilov S. B., Tursunova Z. N., Begmurodovna Q. X. “Study of changes in economic indicators depending on time using continuous functions” //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – T. 10. – №. 1. – C. 143-149.

8. Xasanova G., Qurbonova X. “Ways to promote integrated collaboration of higher education and vocational colleges in economic modernization” //Интернаука. – 2020. – №. 7-1. – C. 66-69.